

NODIM NAMANGONIY (1844-1910)

*Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi
ma'naviyat bo'limi bosh mutahasisi: Sh.Ahmadjanova*



Nodim Namangoniyy maqbarasi 2004 yilda shoir tugilib o'sgan joyda va u davr etilgan istiqloq yillarigacha qabriston bo'lgan hududda shoirga ehtirom tarzida majmua qilib barpo etilgan. Bu ziyoratgoh Nodira ko'chasida joylashgan. Namangan shahrining Chor go'riston mavzesida bunyod etilgan. Nodim Namangoniyy maqbarasi me'moriy obida sifatida katta ahamiyatga ega.

1844-yilda Namangan shahrining eski Jom'e, hozirgi Baynalminal mahallasida tug'ilgan, Sulaymonxon To'ra Ulug'xon to'ra o'g'li Nodim Namangoniyy ziyoli oilada dunyoga kelgan. Uning otasi Ulug'xon to'ra Zokirxon to'ra o'gli, Namangandagi Sayidqulibek madrasasida muddarislik qilgan. Adabiyotga havasmand, she'riy ijod bilan shug'ullangan inson edi.

Ulug'xon to'ra o'z o'g'linin o'qimishli bo'lishini istardi va shuning uchun uni jua erta xat-savodli qiladi, o'zi ta'lim beradi. Yosh Sulaymondan adabiyotga qiziqish va badiiy zavq uyg'otgan ham shu otaning o'zi boladi.

Saidqulibek madrasasida tahsil ko'rgan. Arab, fors tillarini o'rgangan. Qo'qon va Toshkentda bo'lgan, fan-texnika yangiliklari, rus madaniyati, adabiy va madaniy doiralari bilan yaqindan tanishgan. Buxoro, Samarqand (1899), Turkiya, Misr, Arabiston (1902-1903) ga sayohat qilgan. Navoiydan o'rgangan, g'azallariga taxmis, naziralar yozgan.

Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Muhayyir, Shavqiy kabi shoirlar bilan yaqin do'st bo'lib, ijodiy hamkorlik qilgan, ular she'rlariga muxammaslar bog'lagan. Mumtoz she'riyatning barcha janrlarida, turkiy va forsiyda ijod qilgan. G'azallarida inson go'zalligi, muhabbat va vafo, ayollar erkini kuylagan («Sog'indim men, sog'indingmi?», «Maktubi muhabbat uslub» va boshqa), ona-Vatan tabiati, uning go'zalligini tarannum etgan, xalq hayotini realistik aks ettirgan, ijtimoiy illatlarni fosh etgan, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan «Bahor ayyomi keldi», «Davr javridin...», «Bayoni dar safari Toshkand» va boshqalar. «Shikoyati paxta» she'rida qishloq mehnatkashlarining achinarli hayotini tasvirlagan.

Hajviy asarlarida maqtanchoq, mutakabbir boylar, chor amaldorlari tanqid qilingan «Dar mazammati zamona», «Dar shikoyati qozi» kabi). Yumoristik asarlar yozgan «Bezgak» va boshqalardir.

Nodim Namangoniy yarim asrdan ortiq davom etgan adabiy faoliyati davrida barakali ijod etdi.

1902-yilda N. Namangoniy muborak haj safari ziyoratiga boradi.

U 1910-yil 26-iyulda vafot etadi. Va uni otasining yoniga dafn etishadi. Nodimning Namangoniy she'rlari «Turkiston viloyatining gazetasi»da bosilgan. O'zi tuzgan «Bayozi Nodim»ning mukammal nusxasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Eli va yurti uchun ibratli ishlar hamda ma'naviy meros qoldirgan yetuk bilim egasi hamda noyob iste'dodli shoir qabri ustida tiklangan maqbara atrofi obod hiyobonga aylantirilganligi endilikda bu maskanni qutlig' qdamjo va ziyoratgohga aylantirildi.

Adabiyotlar:

1. Avaz o'tar o'g'li. «Devon». T, 1976 yil.
2. Yu.Yusopov «Avaz». T, 1954 yil.
3. Yu.Yusopov «Xorazm shoirlari». T, 1967 yil.